

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
3.	Metall va yog‘och konstruksiyalar uchun yong‘inga bardoshli qavariqlanuvchi m olish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - loyiha doirasida metall va yog‘och konstruksiyalarni yuqori harorat hamda ochiq alanga ta’siridan himoyalovchi qavariqlanuvchi polimer kompozit qoplama tarkibi va uni olish texnologiyasi ishlab chiqiladi; - qoplama lok-bo‘yoq materiallari, smolalar va emulsiyalar asosidagi polimer bog‘lovchilar, antipirenlar, gaz hosil qiluvchi komponentlar hamda koks qatlamini shakllantiruvchi funksional qo‘shimchalar asosida yaratiladi; - komponentlarning maqbul nisbati aniqlanib, metall va yog‘och yuzalar uchun samarali tarkib tanlanadi. Ishlab chiqiladigan qoplama yuqori harorat ta’sirida dastlabki qalinligiga nisbatan 25-30 baravargacha qavarib, issiqlik o‘tkazuvchanligi past, mustahkam koksli himoya qatlamini hosil qiladi; - maxsus qo‘shimchalar hisobiga koks hosil qilish samaradorligi 20-22 % ga oshiriladi; - qoplama metallning kritik haroratgacha qizishini sekinlashtiradi, yog‘ochning alangalanishi va yonishini cheklaydi hamda olov tarqalishini kamaytiradi. Yog‘och materiallarda yong‘inga qarshi samaradorlik bo‘yicha I guruh ta’minlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari” uyushmasi yoki O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tasarrufidagi tegishli tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsianomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari” uyushmasi yoki Favqulodda vaziyatlar vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.